

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI



2023- YILNING  
YANVAR-DEKABR  
OYI LARI BO'YICHA

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING RIVOJLANISHI TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o'rganish maqsadida, statistika organlari tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlanma usulda kuzatuvlar o'tkaziladi.

Uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuv o'tkazish uslubiy asoslarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 24- martdagi 7-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha Nizom" asos bo'lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2023-yilda kuzatuv o'tkazilgan uy xo'jaliklari soni




Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish uslubiyoti Jahon Banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining tavsiyalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'tkaziladi.

**0,2 %** 16000 ta uy xo'jalik kuzatildi.

Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomga muvofiq, har yili respublikaning barcha hududlarida aholi turmush darajasini o'rganish bo'yicha 16 mingta uy xo'jaliklari (jami uy xo'jaliklarining 0,2 foizi) tanlanma kuzatuv amalga oshirilishi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Kambag'allik darajasini hisoblashda - uy xo'jaligi tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qaroriga asosan, aholi daromadlarini MIX miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblanadi.

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatuv o'tkazilgan uy xo'jaliklari soni



**Uy xo'jaligi** – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi

## Uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv to'plamini shakllantirish bosqichlari


**1** Har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq kesimida **618 ta** mahalla tanlab olinadi.

**2** Tanlab olingan mahallalarda yashovchi uy xo'jaliklarining ro'yxati tuziladi va ulardan shahar va qishloq qatlamlari asosida hududlar bo'yicha oddiy tasodifiy uy xo'jaliklari tanlovi amalga oshiriladi.

Kuzatuvlarda uy xo'jaliklari ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etib, tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaliklariga almashtiriladi.


Kuzatuvga tushgan uy xo'jaliklari inson aralashuvisiz, kompyuterda maxsus elektron dastur orqali tanlanadi hamda kuzatuvlar axborotlashgan tizim orqali to'liq planshetlar yordamida amalga oshiriladi, natijalar avtomatik ravishda umumiy bazaga kiritib boriladi.

## Hududlar bo'yicha kuzatuv o'tkazilgan uy xo'jaliklari soni (2023-yilning yanvar-dekabr holatiga, dona)



Uy xo'jaliklari tanlovi har bir hududda yashovchi aholi soniga asoslanib shakllantiriladi. Har bir hudud bo'yicha uy xo'jaliklar tanlovi shahar va qishloq joylar uchun alohida amalga oshiriladi. Kuzatuvlar tanlab olingan uy xo'jaliklarining unda ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etishi orqali tashkil etiladi. Kuzatuv uy xo'jaligi a'zolari bilan bevosita planshetlar orqali so'rov (intervyu) o'tkazishga asoslanadi.


## O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklarining a'zolari soni bo'yicha tarkibi, % da



Statistika agentligining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaligi a'zolarining soni bo'yicha bir va ikki kishilik uy xo'jaliklari – **9,9** %, uch kishilik uy xo'jaliklari – **10,7** %, to'rt kishilik uy xo'jaliklari – **18,0** %, besh kishilik uy xo'jaliklari – **22,0** %, olti va undan ko'p kishilik uy xo'jaliklari – **39,4** % ni tashkil etmoqda.

## O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklarining bolalari soni bo'yicha tarkibi

16 yoshgacha bolalar mavjud bo'lgan uy xo'jaliklari .



16 yoshgacha bolalar mavjud emas.



## O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasi



Kambag'allik darajasi Jahon banki bilan hamkorlikda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari asosida hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil uchun kambag'allik darajasi **11,0 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **3,1 %** punktga kamaydi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator ishlar tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlariga asosan:

- 2023-yilda jami **4,1 mln** aholi, shundan **2,3 mln** nafari doimiy va mavsumiy ish o'rinlarida, **112,8 ming** nafari haq to'lanadigan jamoat ishlarida, **1,6 mln** aholini o'zini o'zi band qilish hisobiga bandligini ta'minlashga erishildi;
- hokim yordamchilari ko'magida **241,3 ming** nafar fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratildi;
- "20 ming tadbirkor 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida 6 745 ta tadbirkorlik sub'ektlari bilan 455,0 ming nafar aholini badligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi;
- mahallabay ishlash asosida **51 mingta** mikroloyihalarni amalga oshirilishi natijasida **206 mingta** yangi ish o'rinlari yaratildi;
- **181 ming** nafar ishsiz fuqarolar kasb-hunarga o'qitildi.